

“MUVOZANAT” ROMANIDA ISHONCH VA XIYONAT

Nasiba Xo`janova

TerDU magistranti,

Respublika baxshichilik san`ati markazi ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10070623>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ulug`bek Hamdamning “Muvozanat” romani tahlil qilingan. Romanda mustaqillikning ilk davridagi odamlar ruhiyati, zohiriy va botiniy olamidagi jarayonlar qay holatda kechgani haqidagi fikrlar bayon etilgan. Bundan tashqari, asardagi ismlarning ramziy ma`nosi haqida ham fikrlar aytilgan.

**Kalit so`zlar:** Yusuf, do`st, tarjima, davr, kitobxon, adabiyotshunos, mustaqillik.

TRUST AND BETRAYAL IN THE NOVEL "MUVOZANAT"

Abstract. This article analyzes the novel "Muvozanat" by Ulugbek Hamdam. In the novel, the thoughts about the mentality of the people in the first period of independence, the processes in the outer and inner world were described. In addition, thoughts were also expressed about the symbolic meaning of the names in the work.

Key words: Yusuf, friend, translation, era, reader, literary critic, independence.

ДОВЕРИЕ И ПРЕДАТЕЛЬСТВО В РОМАНЕ «МУВОЗАНАТ»

Аннотация. В данной статье анализируется роман Улугбека Хамдама «Мувозанат». В романе описаны мысли о менталитете народа в первый период независимости, процессах во внешнем и внутреннем мире. Кроме того, были высказаны мысли и о символическом значении названий в произведении.

Ключевые слова: Юсуф, друг, перевод, эпоха, читатель, литературный критик, независимость.

Bugungi kun o`zbek adabiyotida Ulug`bek Hamdamning alohida o`rni bor. Uning “Muvozanat”, “Isyon va Itoat”, “Sabo va Samandar”, “Ota” kabi romanlari, “Yolg`izlik” qissasi, “Uzoqdagi Dilmura” qissa va hikoyalar to`plami kitobxonlarga tanish. Bundan tashqari, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul”, “Seni kutdim” to`plamlarini ham she`riyat ahli quvonch bilan qarshiladi. Serqirra iste`dod egasi bo`lgan Ulug`bek Hamdamning asarlari bugungi kunda boshqa tillarga eng ko`p tarjima qilinyapti. Uning o`zi ham Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichindadir”, professor Usmon Turonning “Turkiy xalqlar mafkurasi” kabi asarlarni turk tilidan o`zbek tiliga tarjima qildi. Uning har bir yozgan asari kitobxonlar e`tiboriga tushdi.

Dastlab ilk romani “Muvozanat” eʼlon qilinganda har bir tanqidchi, adabiyotshunos bu asarga munosabat bildirdi. Chunki “Muvozanat”da yaqin oʻtmishimiz, mustaqillikning ilk yillari, davr fojealari, odamlar ruhiyati tasvirlangan. Bu romanda shaxs eʼtiqodi va mana shu eʼtiqod qurbonlari haqida soʻz boradi. Aslida, adabiyot tarixidagi eng yaxshi asar deb tan olingan romanlarga ham eʼtibor beradigan boʻlsak, asar qahramoni dramasida ham eʼtiqod fojiasi yotadi. Shu maʼnoda “Muvozanat”da mana shu mangu muammo boshqacharoq talqinda tasvirlanadi. Yozuvchi roman yozilgan payti koʻpchilikni qiynayotgan, koʻpchilikning ongi qalbida kechib oʻtgan yoki kechib turgan holatni qalamga oldi. Bu holat haqida Dilmurod Quronov shunday yozadi: “Muvozanat” mavzu jihatidan gʻoyat dolzarb va muhimi, bir paytlari oʻz vaqtida yozilgan roman sifatida dunyoga keldi. Masalaning ikkinchi tomoni dolzarb mavzuning qanday yoritilgani. Roman koʻp jihatidan avtobiografik xarakterga ega. Ulugʻbek asarning koʻp oʻrinlarini yigʻlab yozgan, yurak- bagʻrini burda- burda qilib matnga singdirib yuborgan. “Muvozanat”ning bir oʻtirishda yozilgandek taaussurot qoldirishi, hatto, asarni yoki muallifni uncha xushlamaydiganlar ham uning samimiy yozilganini beixtiyor eʼtirof etishlari shundan”. Asar mavzu jihatidan gʻoyat dolzarb muammoga bagʻishlangan. Haqiqatan ham, romanda yangi davr ostonasida turgan inson qalbi mezonlarining davr mezonlariga toʻgʻri kelmasligi yoritilgan.

Yaʼni davr evrilishlari natijasida qalb muvozanatining buzilishi va inson fojiasini keng koʻlamda yoritadi. Roman markazida inson, Yusufning taqdiri, uning iztirobli oʻy-kechinmalari, davrda kechayotgan voqealar bilan birga tasvirlanadi. Avvalo, u dunyoviy fikrlaydigan, zamon kishisi, hayotini millatning haqiqiy tarixini yaratish yoʻliga tutgan bu kimsa davr oʻzgarishlarini teran his etadigan tarixiy jarayon, yurt istiqboli istiqboli haqida mustaqil fikrga ega boʻlgan yetuk shaxs. Bozor iqtisodi munosabatlariga oʻtish davri toʻfonlari girdobida dastlab u oʻzini yoʻqotib qoʻyadi, boshqacha aytganda, muvozanatini yoʻqotadi. Buni yozuvchi “Yusufning ichida nimadir qarsillab sindi” deydi. Bu haqida adabiyotshunos olimi Marxabo Qoʻchqorova shunday yozadi: “Muallif asarda biz eng oliy tuygʻular deb inongan, gohida unga sajdalar qilgan, emrangan Muhabbat, Doʻstlik, Birgalik tuygʻular ham naqadar omonat ekanligi fosh etiladi. Xususan, bu Yusuf, Mirazim, Saidning oʻzaro doʻstona munosabatlarida isbotlanadi. Asarda hatto doʻstlik ham vaqt oʻtishi bilan oʻz samimiyatini yoʻqotadi, degan falsafa ilgari suriladi. Chunonchi asar qahramoni Yusuf oʻz doʻstlariga ishongan edi. Ammo doʻstlari unga vafo qilishmaydi.

Rafiqasi bilan ne umidlarda bir yostiqqa bosh qoʻygan edi, lekin maqsadlar, intilishlar, ehtiyojlar boshqa-boshqa boʻlgani uchun ular ajrashishadi.”. Yozuvchi asar qahramonlariga ism tanlashda ham ramziy maʼnolarni yuklagan. Masalan: Yusuf, Amir, Gulshoda,

Oygul... Bu haqida yana biz adabiyotshunos Marxabo Qo'chqorovanning fikrlariga qaytamiz: “Romandagi barcha voqealarini harakatga keltiruvchi obrazning Yusuf deb atalishi ham bejiz emas, albatta. Chunki Sharq adabiyotida Yoqubning husnda va aqlu kamolotda yetuk ettinchi o'g'li Yusuf. Adib bu qadimiy an'anani nazarda tutgan holda o'z qahramoniga Yusuf deb nom beradi”. U juda ko'p sinovlarni boshidan kechiradi, moddiy qiyinchilik jabrini tortadi, oilasi, farzandidan ajraladi. Shu narsa ahamiyatliki, u ne-ne o'y-xayollarga bormasin, turli-tuman ko'chalarga kirib chiqmasi, goho adolatsizlik, nochorlik tufayli har qancha o'rtanmasin, baribir qalbining tub-tubida o'zligiga, adolat tuyg'usiga sodiqligicha qoladi, millat, yurt qayg'usi haqida o'ylashdan bir zum ham to'xtamaydi. Romandagi eng yirik ta'sirchan obraz bu, shubhasiz, Amir obrazidir. Amir o'z davriga moslasha olmagan, qaysidir ma'noda “adashgan odam”dir. U ruhi va tani sog' bo'lishiga qaramay, jinnixonaga tashlanadi. Amir sog'lom bo'la turib o'zini jinnilikka solishga majbur bo'ladi. Jinnilar qo'lida pati yulib olingan musicha qiyofasida ramziy ma'noda u o'zini ko'radi.

U o'zi yashayotgan hayotda o'z orzulariga erisha olmagach, qondirilmagan mayllar-o'z orzusidagi hayot, erishilmagan muhabbat- uning keying qismatida o'zining salbiy izini qoldiradi. Amir fojiasi haqida adabiyotshunos Umarali Normatov shunday yozadi: “Amir fojiasi-din, diniy-islomiy e'tiqod bobida haddini bilmagan mutaassib odamning fojiasi. Amirning ayanchli qismati diniy-islomiy qadriyatlarni tiklash jarayonida yuzaga chiqqan bandai ojizlikning bir ko'rinishi. Aslida ziyoli-muallim, yaxshigina shoir bo'lgan bu odam dunyo ishlari, tashvishlaridan butunlay yuz o'girib, faqat taqvo, toat-ibodat, boriga shukur qilib, faqirona kun kechirish yo'lini tutadi; o'zi qolib o'zgalarni ham shu yo'ldan borishga majbur etadi, hatto o'zgacha qarashdagi otasi, onasiga, og'a-inilariga, yaqinlariga ham kun bermaydi, ertayu-kech ibodat bilan bo'lib, tanglik sharoitida oilasini, kasalmand turmush o'rtog'ini, farzandlarini mushkul ahvolga solib qo'yadi. Holbuki, ustoz ko'rmagan bu chalasavod bu odam chillaga o'tirmasin ed, telba bir holatda darbadar tog' safariga chiqib, nogohon do'zax azobiga duch keladi, o'g'rilikda gumon qilinib, sharmandalarcha sazoyi etiladi”. Amirning haqiqiy fojiasi pand-nasihat, hayotning shafqatsiz saboqlari sabab darhol o'zgarib qoladigan odam emas. Adabiyotshunoslar uni shartli ravishda “kitobiy odam” deb ataydi. U o'zining shaxsiy hayotida, botiniy va zohiriy olamida o'zi bilan o'zi kurashadi. Umuman olganda asarda Amir obrazi eng yorqin obrazlardandir. Asarda har bir qahramonning ruhiy holati, botini va zohirida kechayotgan jarayon yorqin ochib berilgan.

Bu romanda ellikka yaqin qahramon ishtirok etgan. Asar ilk marta nashr etilishida O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning xizmatlari katta, buni muallifning o'zi ham ko'p bora e'tirof etgan. Roman nashr etilishi bilanoq ko'plab adabiyotshunoslarimiz asar haqida ijobiy

fikrlarini bildirdilar. Hattoki bu asar xorijda ham o`rganilyapti. Jumladan, olima Z. Mirzayeva “Muvozanat”ning Amerikadagi talqini” maqolasida amerikalik olima Richal Narrid va uning kasbdoshlarini “Muvozanat” romani befarq qoldirmaganini yozadi.

Xulosa qilib aytganda “Muvozanat” romani keyingi yillarda o`zbek adabiyotida yaratilgan eng yaxshi romanlardan biri va u hozir ham o`z ahamiyatiga ega.

REFERENCES

1. Marhabo Qo`chqorova. Badiiy so`z va ruhiyat manzaralari. Toshkent “Muharrir ” nashriyoti 2021.
2. Ulug`bek Hamdam . Muvozanat.”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent.: 2007.
3. Umidbaxsh adabiyot ehtiyoji. Yozuvchi Ulug`bek Hamdam bilan suhbat.Hurriyat gazetasi. 2015 yil, 9-son.
4. Sherali Sokinning Umarali Normatov bilan suhbati.”O`zbekiston adabiyoti va san`ati ” gazetasi 2003 yil 12-son.

MODERN SCIENCE
& RESEARCH